



## 2018 yil yanvar-sentabr oylarida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **8 866,6** mlrd.so`mni, oshish **8,3%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`shish sur`ati – **4,1 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **34,9%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **35,1%**
- Faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalarini soni- **6060** birlikni tashkil etdi.

Dastlabki ma`lumotlar bo`yicha 2018 yilning yanvar-sentabr oyida viloyat korxonalarini tomonidan 8866,6 mlrd.so`mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo`lib, o`tgan yilning tegishli davriga nisbatan o`shish sur`ati 108,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o`shishining asosiy omili bo`lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8,1 % ga, tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 15,8 % ga, elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondititsiyalashning 11,2 % ga va suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 17,8 % ga o`shishi hisoblanadi.

**2018 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.**



***Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***



Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,9 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Tog`-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 15,8 % ga, ko`mir qazib olish sanoati sohasida - 4,4 % ga oshganligini kuzatish mumkin.




### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8433,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 4,0 mlrd.so'mni, (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati -100,6%), o'rta yuqori texnologiyali – 1089,9 mlrd.so'mni, (109,8%), o'rta quyi texnologiyali – 3115,5 mlrd.so'mni, (117,5%) va quyi texnologiyali – 4224,4 mlrd.so'mni, (102,1%) tashkil etdi.

### **Yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**







O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ichimliklar ishlab chiqarish 11,3 % ga, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 % ga, terini qayta ishlash 16,7 % ga, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish 16,8 % ga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish 15,9 % ga, mebel ishlab chiqarish 18,5 % ga, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 4,2 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 43,0 % ga, mebel ishlab chiqarish 18,5 % ga, oshganligini va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O`shish sur`ati, foizda
9,0	O`simlik yog`li (tozalangan), ming t.	15,2	168,2
39,8	Paxta tolasi, ming t.	43,0	108,0



2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O`shish sur`ati, foizda
<b>Avtomobil benzini, ming t.</b>			
227,4		345,9	152,1
<b>Dizel yoqilg`isi, ming t.</b>			
262,5		377,4	143,8
<b>Amoniy nitrat, ming t. azot</b>			
87,9		105,1	119,6
<b>Superfosfat ming t. P2O5</b>			
11,0		12,6	114,8
<b>Portlandsement, ming t.</b>			
748,3		717,2	95,8
<b>Temir beton mahsulotlari, ming t.</b>			
21,0		27,8	132,4



### ***Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 356,3 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga oshganligi kuzatildi.



### ***Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,5 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,8 % ga oshganligi kuzatildi.



## 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3093,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 4,1 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 34,9 % ni tashkil etdi.

### 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




### ***Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.***

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg'ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 38,3 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 13,5% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 7,4% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,8% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 12,4% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,0% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,5% ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,6% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,4% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,9% ulushini), Bog`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,8% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,7% ulushini), Farg`ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,7% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% ulushini), Qo`shtepa, So`x, Uchko`prik, Furqat tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% dan kam ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.




**2018 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining hajmlari va o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



### Hududlarning iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahar 669,9 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 538,6 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 139,3 mlrd.so`m, Marg'ilon shahar 342,0 mlrd.so`m, Toshloq tumani 91,9 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 118,5 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 129,5 mlrd.so`m, Quva tumani 162,6 mlrd.so`m, Buvayda tumani 84,0 mlrd.so`m, Beshariq tumani 147,6 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 111,7 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 136,8% mlrd.so`m, Farg`ona tumani 108,5 mlrd.so`m, Rishton tumani 100,6 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 67,1 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 72,5 mlrd.so`m, So`x tumani 32,2 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 24,0 mlrd.so`m, Furqat tumani 15,8 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.




## Farg`ona viloyatining 2018 yil yanvar-sentabr oylarida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

№	Shaharlar va tumanlar nomi	2018 yil yanvar-sentabr sanoat ishlab chiqarilishi		2018 yil yanvar-sentabr aholi jon boshiga	2018 yil yanvar-sentabr xalq iste`mol tovarlari		2018 yil yanvar-sentabr aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	o`shish, %	ming.so`m	mlrd.so`m	o`shish, %	ming.so`m
1	Marg`ilon sh.	424,5	107,4	1850,4	342,0	106,5	1490,7
2	Farg`on ash.	3392,2	116,8	12106,5	669,9	103,4	2390,7
3	Quvasoy sh.	658,2	102,0	7248,4	139,3	104,2	1534,5
4	Qo`qon sh.	1199,9	114,3	4863,8	538,6	110,2	2183,0
5	Bog`dod t.	156,5	106,5	755,1	111,7	108,5	538,6
6	Beshariq t.	170,4	109,0	772,9	147,6	106,4	669,4
7	Buvayda t.	210,6	107,7	958,8	84,0	108,7	382,3
8	Dang`ara t.	444,5	107,5	2653,5	118,5	106,2	707,4
9	Yozyovon t.	85,9	105,7	805,6	67,1	103,4	629,7
10	Oltiariq t.	153,0	107,3	748,9	136,8	105,2	669,5
11	Qo`shtepa t.	75,3	107,1	410,6	72,5	103,1	395,6
12	Rishton t.	103,2	109,8	528,9	100,6	103,3	515,4
13	So`x t.	36,8	106,9	490,0	32,2	104,1	428,2
14	Toshloq t.	1101,6	110,7	5655,1	91,9	106,2	471,9
15	Uchko`prik t.	26,7	103,0	121,4	24,0	102,4	109,0
16	Farg`ona t.	147,9	107,1	718,1	108,5	102,6	526,6
17	Furqat t.	20,0	109,4	175,1	15,8	103,1	138,0
18	O`zbekiston t.	224,5	107,4	973,4	129,5	104,8	561,4
19	Quva t.	234,7	108,4	939,1	162,6	107,6	650,5
<b>Viloyat bo`yicha</b>		<b>8866,6</b>	<b>108,3</b>	<b>2433,9</b>	<b>3093,0</b>	<b>104,1</b>	<b>849,0</b>

### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 35,1 % tashkil etmoqda.

### 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




## **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 6060 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1162 tasi Qo`qon shahri, 808 tasi Marg`ilon shahri, 783 tasi Farg`ona shahri, 422 tasi Uchko`prik tumani, 381 tasi O`zbekiston tumani, 317 tasi Dang`ara tumani, 279 tasi Buvayda tumani, 232 tasi Toshloq tumani, 219 tasi Quva tumani, 191 tasi Bog`dod tumani, 196 tasi Oltiariq tumani, 170 tasi Qo`shtepa tumani, 160 tasi Rishton tumani, 148 tasi Farg`ona tumani, 151 tasi Quvasoy shahri, 119 tasi Yozyovon tumani, 115 tasi Furqat tumani, 108 tasi Beshariq tumani, 99 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 909 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 129 tasi Qo`qon shahri, 91 tasi Marg`ilon shahri, 111 tasi Farg`ona shahri, 67 tasi Uchko`prik tumani, 60 tasi O`zbekiston tumani, 28 tasi Dang`ara tumani, 66 tasi Buvayda tumani, 36 tasi Toshloq tumani, 36 tasi Quva tumani, 31 tasi Bog`dod tumani, 50 tasi Oltiariq tumani, 21 tasi Qo`shtepa tumani, 32 tasi Rishton tumani, 26 tasi Farg`ona tumani, 26 tasi Quvasoy shahri, 16 tasi Yozyovon tumani, 24 tasi Furqat tumani, 37 tasi Beshariq tumani, 22 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.



**Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-sentabr oylari davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda**



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefoni:

F.Yakubov  
(0371) 230-87-19